
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL




2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

JAZO MUDDATINI O‘TAYOTGAN SHAXSLARGA TA’SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRLAR

Manzitov Baxtiyor Tolibovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Penitensiar muhit, ijtimoiy izolyatsiya va deprivatsiya, mahkumlar o‘rtasidagi guruhiy munosabatlar, konformlik, guruhiy bosim, stigmatizatsiya hamda institutsionalizatsiyaning shaxs psixologik holati va xulq-atvoriga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, oila va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jazoni ijro etish muassasasi xodimlari bilan munosabatlar, ta’lim va mehnat faoliyatining mahkumlarning psixologik moslashuvi va resotsializatsiyasidagi ahamiyati ochib berilgan. Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning psixologik barqarorligini ta’minlash, destruktiv ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiya qilishda kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: jazo muddatini o‘tayotgan shaxs, mahkum, penitensiar psixologiya, penitensiar muhit, ijtimoiy-psixologik ta’sir, ijtimoiy izolyatsiya, deprivatsiya, guruhiy bosim, konformlik, stigmatizatsiya, institutsionalizatsiya, psixologik moslashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, resotsializatsiya, reintegratsiya, psixologik korreksiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЛИЦ, ОТБЫВАЮЩИХ НАКАЗАНИЕ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются социально-психологические факторы, влияющие на лиц, отбывающих наказание. Рассматривается влияние пенитенциарной среды, социальной изоляции и депривации, групповых отношений между осуждёнными, конформности, группового давления, стигматизации и институционализации на психологическое состояние и поведение личности. Раскрывается значение семейной и социальной поддержки, взаимоотношений с сотрудниками учреждений исполнения наказания, образовательной и трудовой деятельности в психологической адаптации и ресоциализации осуждённых. Обоснована необходимость комплексного социально-психологического подхода к обеспечению психологической устойчивости лиц, отбывающих наказание, снижению деструктивных социальных воздействий и их успешной реинтеграции в общество.

Ключевые слова: лицо, отбывающее наказание, осуждённый, пенитенциарная психология, пенитенциарная среда, социально-психологическое воздействие, социальная изоляция, депривация, групповое давление, конформность, стигматизация, институционализация, психологическая адаптация, социальная поддержка, ресоциализация, реинтеграция, психологическая коррекция.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING INDIVIDUALS SERVING SENTENCES

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-psychological factors affecting individuals serving sentences. It examines the influence of the penitentiary environment, social isolation and deprivation, group relationships among inmates, conformity, group pressure, stigmatization, and institutionalization on individuals' psychological state and behavior. Particular attention is paid to the role of family and social support, relationships with correctional institution staff, as well as educational and work activities in the psychological adaptation and resocialization of inmates. The necessity of a comprehensive socio-psychological approach to maintaining the psychological stability of individuals serving sentences, reducing destructive social influences, and facilitating their successful reintegration into society is substantiated.

Keywords: individuals serving sentences, inmates, penitentiary psychology, penitentiary environment, socio-psychological influence, social isolation, deprivation, group pressure, conformity, stigmatization, institutionalization, psychological adaptation, social support, resocialization, reintegration, psychological correction.

KIRISH

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning psixologik holati va xulq-atvorini o‘rganish penitensiar psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ozodlikdan mahrum qilish sharoiti shaxsning odatiy ijtimoiy muhitdan ajralishi, erkin harakatlanish imkoniyatlarining cheklanishi, ijtimoiy rollarning o‘zgarishi hamda yangi tartib-qoidalarga moslashish zarurati bilan tavsiflanadi. Bunday sharoit mahkumning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, shaxslararo munosabatlari, kelajakka munosabati va ijtimoiy identifikatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli jazo muddatini o‘tayotgan shaxsga ta’sir qiluvchi omillarni individual psixologik xususiyatlar bilangina emas, balki penitensiar muhitning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish zarur.

Jazoni ijro etish muassasasiga tushish shaxs hayotidagi keskin ijtimoiy o‘zgarish hisoblanadi. Shaxs avvalgi oilaviy, kasbiy va ijtimoiy munosabatlaridan

ma’lum darajada ajralib, qat’iy belgilangan kun tartibi va xulq-atvor me’yorlariga ega bo‘lgan yopiq ijtimoiy muhitga moslashishi kerak bo‘ladi. Natijada xavotir, psixologik zo‘riqish, frustratsiya, yolg‘izlik, kelajakka nisbatan noaniqlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik ta’sir masalalari xorijiy va MDH olimlarining tadqiqotlarida keng yoritilgan. E. Goffman yopiq institutsional muhitning shaxs ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sirini, D. Clemmer penitensiar muhitga moslashish va “prizonizatsiya” jarayonini, G. Sykes esa ozodlikdan mahrum qilish sharoitidagi ijtimoiy-psixologik deprivatsiyalarni tadqiq etgan. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi mahkumlar guruhidagi taqlid, identifikatsiya va xulq-atvor modellarini o‘zlashtirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

MDH olimlaridan Yu.M. Antonyan, V.F. Pirojkov, A.I. Ushatikov, B.B. Kazak tadqiqotlarida mahkum shaxsining psixologik xususiyatlari, penitensiar muhit, mahkumlar o‘rtasidagi guruhiy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik moslashuv hamda resotsializatsiya muammolari o‘rganilgan.

O‘zbekiston psixologiyasida E.G‘. G‘oziyev, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiylashuvi, guruhiy munosabatlar, ijtimoiy ta’sir va xulq-atvorning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Mavjud tadqiqotlar tahlili mahkumlarga ta’sir etuvchi penitensiar muhit, guruhiy bosim, ijtimoiy izolyatsiya, stigmatizatsiya, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va resotsializatsiya omillarini o‘zaro bog‘liqlikda kompleks tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Moslashuv jarayonining kechishi shaxsning yoshi, avvalgi hayotiy tajribasi, jazo muddati, sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, individual koping strategiyalari va muassasadagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq. Shuning uchun bir xil penitensiar sharoit turli mahkumlarga turlicha psixologik ta’sir ko‘rsatadi.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxsga kuchli ta’sir qiluvchi omillardan biri ijtimoiy deprivatsiya hisoblanadi. Oila, yaqin insonlar va odatiy ijtimoiy muhitdan uzoqlashish shaxsning mansublik, mehr, qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tan olinishi kabi ehtiyojlarining qondirilishini cheklashi mumkin.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Uzoq davom etuvchi ijtimoiy izolyatsiya ayrim shaxslarda yolg‘izlik, emotsional bo‘shliq, apatiya, o‘ziga ishonchsizlik yoki aksincha, agressiv-himoyaviy reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Bunda mahkumning oilasi bilan barqaror aloqalarni saqlashi muhim himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Oila bilan konstruktiv munosabatlarning mavjudligi nafaqat jazo davridagi psixologik

holatga, balki ozodlikka chiqqandan keyingi reintegratsiya jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Penitensiar muassasa o‘ziga xos guruhiy munosabatlar tizimiga ega. Mahkumlar o‘rtasida norasmiy guruhlar, statuslar, guruhiy me’yorlar va o‘zaro ta’sir mexanizmlari shakllanishi mumkin. Bunday muhitda konformlik, guruhiy bosim, taqlid, identifikatsiya va ijtimoiy o‘rganish jarayonlari shaxs xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi.

Ayrim mahkumlar guruh tomonidan qabul qilinish ehtiyoji tufayli norasmiy guruh me’yorlariga moslashishi mumkin. Agar bunday me’yorlar konstruktiv bo‘lmasa, shaxsda kriminal qadriyatlar va antisotsial xulq stereotiplarining mustahkamlanish xavfi yuzaga keladi. Aksincha, ijobiy yo‘nalishga ega guruhiy faoliyat, ta’lim, mehnat, sport va psixologik dasturlar prosotsial xulq shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uzoq muddat davomida qat’iy tartibga asoslangan muhitda yashash institutsionalizatsiya hodisasini yuzaga keltirishi mumkin. Bunda shaxs kundalik hayotini mustaqil rejalashtirish va qaror qabul qilish imkoniyatlarining cheklanishiga moslashib boradi. Natijada tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy javobgarlikni amalga oshirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Bu holat ayniqsa ozodlikka chiqish arafasida muhim ahamiyat kasb etadi. Muassasa sharoitiga haddan tashqari moslashgan shaxs ochiq jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy talablar, kasbiy vazifalar va mustaqil tanlov zarurati oldida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli jazoni ijro etish tizimida resotsializatsiya faqat intizomga rioya qilishni emas, balki shaxsning mustaqilligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishni ham ko‘zda tutishi lozim.

Mahkumlik maqomi shaxsning o‘zini idrok etishi va jamiyat bilan munosabatiga ham ta’sir qiladi. Stigmatizatsiya, ya’ni shaxsni uning sodir etgan huquqbuzarligi yoki mahkumlik maqomi asosida bir tomonlama salbiy baholash unda ijtimoiy rad etilish hissini shakllantirishi mumkin.

Agar shaxs “jinoyatchi” identifikatsiyasini o‘z shaxsiyatining asosiy xususiyati sifatida qabul qilsa, prosotsial identifikatsiyani qayta shakllantirish murakkablashadi. Shu sababli psixologik va tarbiyaviy ishda huquqbuzarlik sodir etgan xatti-harakat bilan shaxsning umumiy qadri o‘rtasida farq mavjudligini hisobga olish muhimdir. Resotsializatsiya shaxsda yangi ijtimoiy rollar — oila a’zosi, mutaxassis, mehnat qiluvchi fuqaro va jamiyatning mas’uliyatli a’zosi sifatidagi identifikatsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Mahkumlarning psixologik holatiga muassasa xodimlari bilan munosabatlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xodimlarning kommunikativ uslubi, adolatli

munosabati, talablarning izchilligi va shaxsiy qadr-qimmatga hurmat mahkumning muassasaga munosabati hamda tuzatish jarayonida hamkorlik qilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Haddan tashqari konfliktli kommunikatsiya qarshilik, agressiya va ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Professional, aniq chegaralarga ega va hurmatga asoslangan munosabat esa psixologik xavfsizlikni ta’minlash hamda konstruktiv xulqni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan penitensiar muassasa xodimlarining psixologik va kommunikativ kompetentligi resotsializatsiyaning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Oila bilan munosabatlar mahkumning psixologik barqarorligini saqlashda asosiy ijtimoiy resurslardan biridir. Yaqinlari bilan aloqalarning davom etishi shaxsda jamiyatga mansublik hissini saqlash, kelajakka ijobiy munosabatni shakllantirish va ozodlikdan keyingi hayot uchun maqsadlarni belgilashga yordam beradi.

Aksincha, oilaviy aloqalarning butunlay uzilishi ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi va ozodlikdan keyingi moslashuv imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun mahkum bilan ishlashda uning oilaviy munosabatlarini diagnostika qilish, konstruktiv aloqalarni qo‘llab-quvvatlash va zarur hollarda oilaviy psixologik maslahatlarni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxsning ta’lim va mehnat faoliyatiga jalb etilishi uning vaqtini mazmunli tashkil etish bilangina cheklanmaydi. Mehnat va ta’lim shaxsda kompetentlik, mas’uliyat, o‘ziga ishonch va kelajak istiqbolini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik vosita hisoblanadi.

Kasbiy ko‘nikmalarni egallash ozodlikdan keyingi bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’lim esa shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin. Shu sababli penitensiar tizimdagi ta’lim va mehnat faoliyati resotsializatsiyaning psixologik mexanizmi sifatida ham baholanishi lozim.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar bilan olib boriladigan psixologik ishning strategik maqsadi shaxsning jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlashdir. Bunda psixodiagnostika, individual psixologik maslahat, guruhiy treninglar, konfliktlarni konstruktiv hal qilish, agressiyani boshqarish, emotsional regulyatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

Psixologik ta’sirning samaradorligi faqat salbiy xususiyatlarni korreksiya qilish bilan belgilanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuv mahkumning psixologik resurslari, kuchli tomonlari, prosotsial motivlari va kelajak istiqbollarini rivojlantirishga ham asoslanadi. Shaxs o‘z kelajagini real rejalashtira boshlashi, jamiyatda qonuniy vositalar orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ko‘ra olishi resotsializatsiyaning muhim psixologik ko‘rsatkichidir.

XULOSA

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ta’sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar murakkab va ko‘p darajali tizimni tashkil etadi. Ular qatoriga ijtimoiy izolyatsiya va deprivatsiya, penitensiar muhit, guruhiy bosim, konformlik, norasmiy guruh me’yorlari, institutsionalizatsiya, stigmatizatsiya, xodimlar bilan munosabatlar, oilaviy aloqalar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va mehnat faoliyati kiradi.

Mazkur omillarning ta’siri har bir shaxsning individual psixologik xususiyatlari va mavjud ijtimoiy resurslariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Shu bois penitensiar muassasalarda psixologik faoliyatni “shaxs – penitensiar muhit – mahkumlar guruhi – oila – jamiyat” tizimi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv mahkumning psixologik barqarorligini ta’minlash, destruktiv ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish, prosotsial qadriyatlarni shakllantirish va ozodlikka chiqqandan keyingi muvaffaqiyatli reintegratsiya uchun zarur psixologik resurslarni rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goffman E. Asylums: Essays on the Social Situation of Mental Patients and Other Inmates. – New York: Anchor Books, 1961.
2. Clemmer D. The Prison Community. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1958.
3. Sykes G.M. The Society of Captives: A Study of a Maximum Security Prison. – Princeton: Princeton University Press, 1958.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
5. Haney C. The psychological impact of incarceration: Implications for post-prison adjustment // Prisoners Once Removed: The Impact of Incarceration and Reentry on Children, Families, and Communities. – Washington, DC: Urban Institute Press, 2003. – P. 33–66.
6. Andrews D.A., Bonta J. The Psychology of Criminal Conduct. – 6th ed. – New York: Routledge, 2017.
7. Liebling A., Maruna S. (Eds.). The Effects of Imprisonment. – Cullompton: Willan Publishing, 2005.
8. Maruna S. Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives. – Washington, DC: American Psychological Association, 2001.
9. Антонян Ю.М. Психология преступника и расследования преступлений. – М.: Юристъ, 1996.
10. Еникеев М.И. Юридическая психология. – М.: Норма, 2005.

11. Васильев В.Л. Юридическая психология. – СПб.: Питер, 2009.
12. Пирожков В.Ф. Криминальная психология. – М.: Ось-89, 2007.
13. Ушатиков А.И., Казак Б.Б. Пенитенциарная психология. – Рязань: Академия права и управления Минюста России, 2003.
14. Реан А.А. Психология личности: социализация, поведение, общение. – СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2004.
15. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
16. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
17. Shoumarov G‘.B. (tahriri ostida). Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.
18. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat.
19. United Nations. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules). – New York: United Nations, 2015.

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI Elov Ziyodullo Sattorovich	6
OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna	14
MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI Tursunova Ozoda Abdullayevna	22
ICHKI ISHLAR ORGANLARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA YANGI BOSQICH: TA'LIM SIFATI, INNOVATSION YONDASHUVLAR VA DUAL TA'LIM INTEGRATIV MODELI Shermatova Nazokat Safarovna	28
AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI (TALABALAR MISOLIDA) Ramazonov Jahongir Djalolovich	34
O'SPIRINLARDA KIBERBULLINGNING PROFILAKTIKASI VA PSIXOKORREKSION IMKONIYATLARI Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	46
GLOBALLASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	56
O'SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI Sadilloyev Odiljon Oripovich	63
JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN SHAXSLARGA TA'SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRLAR Manzitov Baxtiyor Tolibovich	72

BIOLOGIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH **Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o'g'li**	**79**
TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR **Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**	**91**
O'QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI **Axmedova Gavhar Faxriddinovna**	**101**
QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG'LIQ QO'SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI **Davlatova Saodat Tilovberdiyevna**	**109**
YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI **Qurbonova Manzila.,** **Bobojonov Shavkat**	**116**
BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O'RNI **Tuksanova Zilola**	**132**
QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR **Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna**	**138**
INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI **Koyshekenova Tatyana Kenesarievna**	**144**
LINGVOSEMIOTIKANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI **Nurmatova Sadbarxon Erkinovna**	**151**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/